

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13765432>

ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDAGI TUSHLARNING PSIXOLOGIK TALQINI

Umaraliyeva Chinoroy

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti 401-guruh talabasi

Elektron pochta: chinoraumaraliyevachinora@mail.ru

ANNOTATSIYA

Bu maqola psixoanalizning qonun-qoidalariga rioya etilgan holda Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidagi tushlar psixologik talqin qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** psixoanaliz, psixologik talqin, tush motivi, tahlil usuli, nazariya, ong osti dunyosi, talqin metodi, psixoanalitik tadqiq.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье сны из романа «Сокровище Улугбека» Адила Якубова психологически объясняются по правилам психоанализа.

***Ключевые слова:** психоанализ, психологическая объяснение, мотив сна, метод анализа, теория, мир подсознания, метод объяснение, психоаналитическое исследование.*

Psixoanaliz va adabiyot bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. Psixologik talqinda har doim adabiyot – obyekt, psixoanaliz esa subyekt sifatida bir-birini to‘ldirib, boyitib turadi. Fanda birinchilardan bo‘lib psixoanaliz bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini e‘lon qilgan, izlanishlar olib borgan olim Zigmund Freyddir. Z. Freyd o‘zining ko‘p yillik amaliy faoliyati, izlanishlari natijasi o‘laroq “Ruhiiy bezovtalik tadqiqi”, “Tushlar talqini”,

“Kundalik hayot psixopotologiyasi”, “Omnia psixologiyasi va inson Meni tahlili”, “Men va u” kabi qator tadqiqotlar yozgan, psixoanalizning markaziy konsepsiyalarini ishlab chiqqan, asoslashga urungan va amaliyotda qo‘llagan. Shu bois u tom ma’noda psixoanaliz amaliyoti va nazariyasining asoschisi hisoblanadi.¹

Z.Freyd izlanishlarining obyekti, asosan, badiiy adabiyotdir. Uni yozuvchi emas, asardagi qahramonlarning ruhiy holati qiziqtirgan.

Psixoanalizda anchayin keng ishlangan shakl tush bo‘lib, Freyd bunday o‘ziga xos voqelik tahlilini inson ong osti dunyosiga eltuvchi “Shohona yo‘l”, deb atagan. Tushlarning hech qanday ma’no va mantiqni tan olmaydigan sirli tabiatida inson ong osti dunyosida tinimsiz haraktada bo‘lgan jilo bilmas istaklarining simvollari, belgilari mavjud deb qaragan. U yozadi: “Tush haqidagi mengacha bo‘lgan turlicha talqinlardan qat’iy nazar tushning murakkab va tushuniksiz dunyosi ostida muayyan ma’no yotadi. Faqat ma’no qulfi aniq talqin yo‘li bilan ochilishi mumkin. Talqin metodi shunga asoslanadiki xotirada saqlanib qolingan tush mazmunini yo boshqa mazmun bilan chambarchaslikda yopiq qulfga nisbatan kalit bo‘ladi yoki tushning bir butun mazmuni yashirin mazmun uchun simvol vazifasini o‘taydi”².

Jahon adabiyotidagi ko‘plab asarlarda mualliflar tush motividan asar qahramonlarining ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanadi. Shu jumladan, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov ham o‘zining “Ulug‘bek xazinasi” asarida Mirzo Ulug‘bek va Padarkush Abdulatifning ruhi holatini tasvirlash uchun tushni yordamchi vosita qilib olgan.

“Bu tun, bu tun tush ko‘rdim”, - Mirzo Ulug‘bek bosh chayqab, miyig‘ida kulib qo‘ydi. “Tushimda jannatmakon ustod kaminani qattiq koyidilar. “bu bevafo saltanatni deb ilm-fandan yuz o‘girding”, dedilar. “taxt sohibi bo‘laman deb shunday yetuk salohiyatingni juvonmarg qilding”, dedilar.” Aliqushchi o‘rnida bir tebranib, “Yo Rabbiy”, deb yubordi.³

¹ Uzoq Jo‘raqulovning “Hududsiz jilva” kitobi (37-bet).

² Uzoq Jo‘raqulov “Hududsiz jilva” kitobi (45-bet).

³ Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romani (8-bet).

Tarixdan ma'lumki, Mirzo Ulug'bekning boshqa temuriy shahzodalardan farqli ravishda harbiy ishlarga unchalik uquvi bo'lmagan. Lekin buyuk olim va astronom sifatida dunyoga dong'i ketgan. U 38 yillik hukmronlik davrida siyosat yuritishda otasi Shohruh Mirzodan yordam olib turgan. Davlat ishlaridan toliqqan chog'larida o'zi tashkil etgan kutubxonaga borib ilmiy ishlar bilan mashg'ul bo'lar, rasadxonada gallaktikadagi yulduzlarni kuzatar, shogirdlari bilan ilmiy munozaralar uyushtirib turardi. Shuning natijasi o'laroq u ilmda katta yutuqlarga erishgan. Otasining vafotidan so'ng esa Mirzo Ulug'bek davlat ishlari bilan band bo'lib, ilmiy izlanishlari to'xtab qoladi. So'nggi vaqtlarda bo'layotgan temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-u taxt uchun kurashlar, mamlakatdagi ichki nizolar, ayniqsa o'z farzandining unga qarshi tig' ko'tarishi Mirzo Ulug'bek qalbini dudama qilich bo'lib qiymalay boshlaydi. Bu ruhiy bosimlar natijasida uning ong osti dunyosida yashirinib yotgan orzu intilishlari tush orqali yuzaga chiqadi. Uning bir necha yil oldingi umidlari tushida ustoz Qozizoda Rumi siymosida namoyon bo'lib, toj-u taxtdan voz kechib, ilm qilishga da'vat etadi.

Freydning izdoshlaridan biri Erix Frommning fikricha: "Aksariyat tushlarga xos umumiylik shundaki ular uyg'oq ong mantiqining, qonun-qoidalarini tan olmaydi. Tushda zamon qonuniyatlar o'z ma'nosini yo'qotadi. Chunki tushda biz qachonlardir vafot etgan odamlar bilan muloqotga kirishamiz, o'tmishda bo'lgan voqealarga guvoh bo'lamiz yoki vaqt nuqtaiy nazaridan katta farqga ega bo'lgan ikki mustaqil voqeaning bir zamon ichida sodir bo'lganini kuzatamiz. Shuningdek, makonlar xos qonun-qoidalar ham tushda o'z qiymatini yo'qotadi. Biz eng kichik lahza ichida ulkan makon chegaralarini bosib o'tamiz yoki bir paytning o'zida bir necha makonda "mavjud" bo'lishimiz mumkin. Tushda ikki odam bir kishida va ayni paytda bir odam ikki kishida namoyon bo'lishi yoxud bir kishi tamoman boshqa kishiga aynalib qolishi... Uyg'oqlikda mutlaqo hayolga kelmagan kishilar, voqealar, bilim va tajribalar tushda kashf etilishi mumkin"¹.

¹ Uzoq Jo'raqulov "Hududsiz jilva" (45-bet).

Tush insonning psixologik holatini ifodalovchi, ruhiy holatini o'zida aks ettirgan, ichki kechinmalarni tasvirlovchi vositadir. Yuzaki qaraganda tushda kechgan voqea hodisalar xoh u sarguzashtga boy bo'lsin, xoh u qo'rqinchli, hech qanday ahamiyatga ega emasdek tuyiladi. Lekin yaxshiro o'rganilganda har bir tushning yo diniy, yo ilmiy va yoki psixologik talqini bo'ladi. Ya'ni tushda ro'y bergan voqealarda ishtirok etgan har bir ramzning o'ziga xos ma'nosi mavjuddir. Xususan, Abdulatif ko'rgan tush ham shular jumlasidandir.

Shahzoda butun a'zoyi badaniga rohatbaxsh bir narsa quyilib, bo'g'in-bo'g'inigacha bo'shashib borayotganini sezdi-da, boshini parqu yostiqa tashladi. Ko'zlari yumilib borarkan ko'nglidan "Shoyad shu bugun barcha g'urbatlardan xalos bo'lsam", - degan fikr o'tdi. Lablari pichirib: "Yo Rabbim, o'z hibsi himoyatingda saqlab, rahm-shafqatingni darig' tutmagaysen", - deb qo'ydi. Shahzoda tush ko'rdi. Go'yo u ko'k saroyda xaram xonaga yondosh o'rdada keng, muhtasham xonada katta bazmi jamshid qurayotgan emish. Bazimga barcha amirlar va nufuzli beklar, devon saroy mahramlari yig'ilgan emish. Bakovullar oltin barkashlarda taom ustiga taom tortishar, may daryo bo'lib oqar emish. Poygakda o'tirgan mashhur sozandalar jon oluvchi dilrabo kuylar chalar emish. Xonaning to'ridagi harir parda orqasida esa yarim yalang'och nozaninlar zeb-ziynatlarini yoqimli jaranglatib, noz-u karashmalar bilan ming maqomda xiromon qilar emish. To'satdan eshikda Amir Sulton Jondor Tarxon kelib, sajdaga bosh egarmish. Shahzoda Amir Jondorni ko'rib, o'rnidan turib ketarmish-u, "ushlanglar bu fitnachini", deb baqirarmish. "Bu kazzob dorul saltanada yashirinib, bizga choh qazib yurgandur". To'rda o'tirgan bir necha amirlar o'rinlaridan sakrab turib, qilichlarini yalang'ochlar emish. Lekin Amir Jondor bunga parvo qilmay, shahzodaga yuzlanib yana tazim qilarmish. "Pushti panohim, faqir fitna fasoddan yiroq, sadoqati zahir qulingizdurmen", dermish. "Sodiq qulim bo'lsang qaylarda yuribsen, battol?", deb baqirar emish shahzoda. "Sadoqati zahir qulingiz sizday valene'mat pushti panohimga kiyik ovlab tog'larda yurgan edim. Bu kun bir kiyikni boshini keltirdim. Uni barcha g'urbat, barcha xastalikdan forig' bo'lib, qushday yengil tortasiz davlatpanoh". Amir Jondor shunday eshikdan kimnidir imlab chaqirarmish.

Xonaga dasturxon yopilgan katta oltin barkash ko'tarib notanish bir navkar kirib kelarmish. Amir Jondor uning qo'lidan barkashni olib shahzodaga uzatarmish. "Barcha dardingizga davo bo'lador, tatib ko'ring, davlatpanoh". Shahzoda barkashni olib dasturxonni ocharmish. Oltin barkashda qonga bo'yalgan o'z boshi tirjayib yotarmish... Barkash qo'lidan tushib, qonga bo'yalgan boshi yerga yumalab ketarmish. Shahzoda dod solib qichqirganicha uyg'onib ketdi.¹

Shahzodaning ko'rgan bu tushini psixologik nuqtaiy nazariga ko'ra kuchli ruhiy toliqishning oqibati deb talqin qilsak bo'ladi. Chunki Abdulatif taxt tepasiga kelganidan keyin keragidan ortiq darajada xunrezliklarga qo'l uradi. O'z otasini shafqatsizlarcha qatl ettirib, Padarkush bo'ladi va shu qotillikga qatnashganlarni ham o'ldirishga amr qiladi. Har gal o'zining amri bilan o'ldirilganlarning, xususan, otasi va ukasining, Mirzo Ulug'bekni o'ldirgan sodiq amiri Saidabbosning qonga bo'yalgan boshlarini ko'rganda qalbida daxshatli qo'rquv, a'zoyi badanida tiyiqsiz titroq, ruhiyatida ayovsiz qiynoq paydo bo'lardi. Shuning oqibatida bora-bora uning ko'ziga har bir sharpa, har bir soya yengib bo'lmas yovdek ko'rina boshlaydi. Ruhiyatida kechayotgan bu jarayon oxir oqibat qo'rqinchli tush bo'lib ong osti dunyosini yorib chiqadi.

Abdulatif uyg'onganidan keyin o'ngida ko'rgan voqea-hodisalarni tushidagi holatlar bilan solishtira boshlaydi. Natijada taxtga o'tirgan kundan boshlab shu kungacha qilgan barcha ishlaridan pushaymon bo'ladi, tavba qiladi.

Xullas, psixoanalizga ko'ra tushlar ong ostida mavjud bo'lgan, ammo to'g'ridan-to'g'ri namoyon bo'lish imkoniyati cheklangan inson intilishi va istaklarining ramziy ishoralariga kalit vazifasini o'taydi. Bunday kalitga ega bo'lish uchun esa chuqur psixoanalitik tadqiq talab etiladi.

¹ Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" romani (226-227-betlar).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasini” Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti
2. U. Jo‘raqulov. “Hududsiz jilva”. O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2006 yil.
3. U. Jo‘raqulov. “Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi Toshkent-2015.